

2/2024,
mart-
aprel
(№ 00070)



O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNING ISTITUTSIONAL SHART SHAROITLARI

Amirqulov Shuxrat Olimovich

QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti v.b., i.f.f.d. (PhD)

<https://orcid.org/0009-0007-7011-9751>

shuxratamirkulov01@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a18

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirishning institutsional shart sharoitlari, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar va qishloq xo‘jaligini rivojlanish bosqichlari yoritib berilgan. Maqolada mamlakat qishloq xo‘jaligini rivojlanishini tadqiqot usullaridan foydalangan holda bosqichlarga bo‘lib tahlil qilingan. Bunda rivojlanishning birinchi bosqichi o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillarigacha bo‘lgan davr bo‘lib bunda artel, kommuna, chorikor, kolxoz va sovxozlar faoliyati, ikkinchi davr 1994-2004 yillarda davlatning oqilona siyosati va qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab quvvatlanishi natijasida mamlakat qishloq xo‘jaligi vaziyatini normallashtirishga erishilgani, uchinchi bosqich – 2004 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan faol o‘sish davri va to‘rtinchi bosqich – 2017 yildan hozirgacha davom etayotgan qishloq xo‘jaligida xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish davri (klasterlashtirish) tashkiliy-iqtisodiy va normativ huquqiy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: optimallashtirish, bosqichlar, kommuna, klaster, fermer, birja, bozor tamoyillari.

ЭТАПЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ УСЛОВИЯ

Амиркулов Шухрат Олимович

д.ф.э.н. (PhD), в.и.о.доцента кафедры «Инновационная экономика» КарИЭИ

Аннотация

В статье описаны институциональные условия развития аграрного сектора, проводимые в сельском хозяйстве реформы и этапы развития сельского хозяйства Узбекистана. В статье с использованием исследовательских методов поэтапно анализируется развитие сельского хозяйства страны. Первый этап развития - период до девяностых годов прошлого века, в течение которого осуществлялась деятельность артелей, коммун, чорикоров, колхозов и совхозов, второй этап - 1994-2004 гг. государственная и финансовая поддержка сельскохозяйственных предприятий нормализация сельскохозяйственной ситуации в стране, третий этап - период активного роста с 2004 по 2017 годы и четвертый этап - период перехода от сырьевого производства к производству готовой продукции в сельском хозяйстве, что продолжается с 2017 года по настоящее время (кластеризация) объясняется с организационной, экономической и нормативно-правовой точки зрения.

Ключевые слова: принципы оптимизации, этапы, коммуна, кластер, фермер, биржа, рынок.

STAGES OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN AND ITS INSTITUTIONAL CONDITIONS

Amirkulov Shukhrat Olimovich

KEEI, acting associate PhD professor of the Chair “Innovative economics”

Abstract

The article describes the institutional conditions for the development of the agricultural sector, the reforms carried out in agriculture and the stages of development of agriculture in Uzbekistan. Using research methods, the article analyzes the development of the country's agriculture step by step. The first stage of development is the period until the nineties of the last century, during which the activities of artels, communes, chorikors, collective farms and state farms were carried out, the second stage is 1994-2004. state and financial support for agricultural enterprises normalization of the agricultural situation in the country, the third stage is a period of active growth from 2004 to 2017 and the fourth stage is the period of transition from raw material production to the production of finished products in agriculture, which continues from 2017 to the present (clustering) is explained from an organizational, economic and regulatory point of view.

Key words: optimization principles, stages, commune, cluster, farmer, exchange, market

Kirish

Qishloq xo'jaligi tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining muhim sohasi hisoblanadi. Tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sish darajasi doimiy nazorat qilib boriladi. Tahlillarning ko'rsatishicha dunyo yalpi ichki mahsulotining 40 foizi aynan shu tarmoqda yaratiladi. Qishloq xo'jaligi aholining eng muhim oziq ovqat mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom ashyo bilan taminlaydi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida davlat darajasida va kichik tadbirkorlik darajasida bajarilishi talab etiladigan qator muammolar mavjud. SHuning uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sanaladi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi

I.f.d., prof.M. Matkarimov¹ “Fermer xo'jaliklarida yer maydonlarini meyorlashtirish masalalari” mavzusidagi maqolasida qishloq xo'jaligida mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar, xususan fermer xo'jaliklarini tashkil etish, restrukturizatsiyalash, reorganizatsiyalash bilan bog'liq masalalarni, shuningdek, yer maydonlarini optimallashtirishni tadqiq etgan.

TDIU olimlari X.D.Xujakulov va boshqalar² “Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning ayrim jihatlari” nomli tadqiqot ishida fermer xo'jaliklarini yer maydonlarini optimallashtirish, ishlab chiqarishning tarmoq tarkibini kengaytirish orqali uning iqtisodiy samaradorligini oshirishmasallarini tadqiq etilgan.

X.Qalimbetov va Z.Baymuratovalar³ “Fermer xo'jaliklarida qo'shimcha tarmoqlarni tashkil etishni rag'batlantirish masalalari” asarida fermer xo'jaliklarida qo'shimcha tarmoqlarni tashkil etish tizimini takomillashtirish va uni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tadqiq qilingan.

¹ Matkarimov M. “Fermer x'jaliklarida yer maydonlarini meyorlashtirish masalalari”

² Хужакуллов Х.Д ва бошқалар “Кўп тармоқли фермер х'жаликларини ривожлантиришнинг айрим жиҳатлари” https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/1_X_Xojakulov_N_Asqarova.pdf

³ Қалимбетов Х. ва Баймуратова З. “Фермер х'жаликлариди қўшимча тармоқларни ташкил этишни рағбатлантириш масалалари” илмий-амалий агроиқтисодий журнал /2(9) 2019

N.X.Bekmurodov⁴ o‘zining “Qishloq xo‘jaligini strategik rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va uni amalga oshirish yo‘llari” nomli risolasida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning strategik yo‘nalishlari asoslangan bo‘lib, muallif tomonidan ushbu tarmoqni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqotchi B.V.Nasimov⁵ o‘zining tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlantirishda boshqaruv mexanizmini tutgan o‘rni va ahamiyatini, shuningdek tarmoqni investitsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tahlil etilgan va o‘zining taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda mamlakat qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlanish holatini ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazish orqali bosib o‘tilgan tarixiy davrlari aniqlashtrildgan, iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil va sintez qilingan, monografik tadqiqotlar o‘tkazish orqali tarmoqning o‘tgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlariga xotima berilgan, hozirgi holati tahlil qilinib, istiqbol davrdagi rivojlanishi ilmiy asoslab berilgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston agar sohasining rivojlanish tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Insoniyat dastlab chorvachilik tarmog‘ini tashkil etdi, keyinchalik chorvachilik tarmog‘i tarkibida o‘simlikchilik qaror topdi. Kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi natijasida ushbu tarmoqlar qishloq xo‘jaligining alohida yo‘nalishlariga aylandi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlanishining quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi bosqich o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillarigacha bo‘lgan davr bo‘lib bunda; insoniyat o‘zining hayotiy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, aholini eng muhim oziq-ovqat bilan taminlash maqsadida qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning bir qancha shakllaridan foydalandi. Dastlab xo‘jalik yuritishning “chorikor”, “artel”, “kommuna”, “MMT” kabi shakllari qo‘llanildi.

Keyinchalik o‘tgan asrning 50-yillarida sobiq ittifoq kollektivlashtirish siyosatini ishlab chiqdi va qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning “kolxoz” rus tilida “kollektivnogo xozyaystvo” yani jamoa xo‘jaligi shakli qaror topdi. Bu xo‘jalik yuritish shakli mulkning jamoa mulkiga asoslanganligi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Keyingi davr esa 1960-70 yillarda sobiq ittifoqning paxta xom ashyosini yetishtirish bo‘yicha dunyoda gegemonligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda aynan O‘zbekistonda cho‘l hududlarini o‘zlashtirish va yangi paxtachilik xo‘jaliklarini tashkil etish ishlari amalga oshirildi. Qarshi, Mirzacho‘l, YOzyovon va Surxon-SHerobod cho‘llari o‘zlashtirilib yuzlab yangi sovxozlar tashkil etildi. “Sovxoz” bu sovet xo‘jaligi manosini anglatadi va bunda qishloq xo‘jaligi korxonasi bo‘lgan sovxozlar davlat mulkiga asoslangan, barcha ishlab chiqarish jarayonlari markazdan turib boshqarilar edi.

⁴ Bekmurodov N.X. Qishloq xўjaligini strategik rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va uni amalga oshirish yo‘llari” [file:///C:/Users/User/Downloads/ishlo-h-zhaligini-strategik-rivozhlantirishning-ustuvor-y-nalishlari-va-uni-amalga-oshirish-y-llari%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/ishlo-h-zhaligini-strategik-rivozhlantirishning-ustuvor-y-nalishlari-va-uni-amalga-oshirish-y-llari%20(1).pdf). Иқтисод ва молия / экономика и финансы 2021, 4(140). “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2018 йил

⁵ Nasimov B.V. “Ўзбекистон республикасида қишлоқ хўжалигини инновацион ривожланиш самарадорлиги”. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2018 йил. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/25_Nasimov.pdf

Ikkinchi davr 1994-2004 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda davlatning oqilona siyosati va qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab quvvatlanishi natijasida mamlakat qishloq xo‘jaligi vaziyatini normallashtirishga erishildi;

O‘zbekistonda “sovxoz”lar mustaqillikdan keyin ham faoliyat yuritdi va 1994 yilda Vazirlar Mahkamasining 14-sonli qarori bilan “jamo-shirkat” xo‘jaligiga aylantirildi.

1998 yil 30 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi [1], «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi [2] va «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi [3] qonuni hamda “Er kodeksi” [4] ning qabul qilinishi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning huquqiy asosi bo‘lib, rivojlanishning yangi davrini ochib berdi.

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvarda qabul qilingan «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish to‘g‘risida»gi qaroriga asosan Yozyovon, Mirzaobod va Mehnatobod tumanlaridagi zarar bilan ishlayotgan 83 ta shirkat to‘liq fermer xo‘jaliklariga aylantirildi, bu o‘z samarasini berdi. Shu tariqa mamlakatimizda 2004 yildan fermerlikni keng targ‘ib etish davri boshlandi.

Uchinchi bosqich – 2004 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan faol o‘sinh davri; bu davr 2004 yil 26 avgustda “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi “2004—2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PF-3342-son Farmoni [5]ning qabul qilinishi bilan boshlandi. 2004—2007 yillar davomida respublikamizning barcha hududlarida shirkat xo‘jaliklari to‘liq tugatilib, ular negizida 215 mingdan ziyod fermer xo‘jaliklari tashkil etildi.

Biroq, fermer xo‘jaliklari faoliyati chuqur tahlil qilinganda, amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay hali ham fermer xo‘jaliklari faoliyatida bir qator yechimini kutayotgan dolzarb muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, ayrim fermerlar tomonidan yer maydonlaridan samarasiz foydalanilayotganligi, moliyaviy-iqtisodiy ahvoning surunkali nobarqarorligi, moddiy-texnika resurslari bilan yetarlicha ta‘minlanmaganligi, yer ajratishda hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, aholi zichligi va bandligi kabi masalalar inobatga olinmaganligi, shuningdek xo‘jaliklarning tarmoq ixtisosligi (paxta va g‘allachilik, bog‘ va uzumchilik, sabzavot va polizchilik, chorvachilik va boshqalar) bo‘yicha yer uchastkalari maqbul bo‘linmaganligi kabi masalalar ko‘zga tashlanib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi «Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoyish shu kabi masalalarning yechimini topish maqsadida qabul qilindi. Mazkur hujjat ijrosini ta‘minlash yuzasidan amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayonida respublikamizdagi fermer xo‘jaliklari soni 215 ming 776 tadan 107 ming 381 taga yoki 51 foizga kamaydi. Bunda fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha yer maydonlari 27,4 gektardan 47,5 gektargacha kengaydi.

2009 yil 22 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» F-3287 son Farmoyishi [6] qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 yanvardagi 22-son qarori bilan “Fermer xo‘jaligining yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

2015 yilga kelib mamlakat qishloq xo‘jaligida ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini shakllantirish siyosati yuritildi.

To‘rtinchi bosqich – 2017 yildan hozirgacha davom etayotgan qishloq xo‘jaligida xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish davri (klassterlashtirish);

2017 yilda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida eksperiment tariqasida “qishloq xo‘jaligi klassteri” tashkil etildi.

2019 yil 9-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14-sonli qarori [7] qabul qilindi. Qaror ijrosini taminlash, faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaligi yer maydonini kamida 100 gektarga yetkazish maqsadida yana optimallashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Bu davrga kelib, paxtani qayta ishlash korxonalari davlat tasarrufidan chiqarilib, paxta-to‘qimachilik klasster korxonalariga o‘tkazildi, donni qayta ishlash korxonalari ham davlat tasarrufidan chiqarilib xususiyashtirildi. Paxta-g‘allachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklari endilikda to‘g‘ridan to‘g‘ri hududiy klaster korxonalari bilan shartnoma qiladigan tizim shakllantirildi.

2023 yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-205 son farmoni [8] qabul qilindi. Farmon bilan qishloq xo‘jaligida erkin bozor tamoyillari joriy etildi. Fermer xo‘jaliklari yetishtiriladigan bo‘lg‘usi hosilni viloyatda faoliyat yuritayotgan klasster korxonalariga birjada “kimoshdi” savdosi orqali sotish tizimi joriy etildi. G‘allachilikda esa 2025 yil hosilidan boshlab birjada “kimoshdi” savdosi orqali sotish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Quyida bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2024 yil 5 yanvar, PQ-5 sonli qarorining qabul qilinishi ham qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yurituvchi subektlar zimmasiga katta masuliyat yukladi. Qaror bilan suv istemolchilari uchun 1-metr kubning suvning bahosi 100 so‘m qilib belgilandi, aqlli suv o‘lchagichlarni o‘rnatish, suv tejoychi texnologiyalarni qo‘llash va ala maydonlarini lazerli tekislagichlar bilan tekislash ishlarini amalga oshirgan yuridik shaxslarga suv solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berilishi qarorda o‘z aksini topgan.

Agrosanoat majmuasining rivojlanishida tabiiy iqlim sharoitlari, davlatning qo‘llab quvvatlashi, jahon bozorida baho o‘zgarishlari va tarmoqning investitsion jozibadorligi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu omillar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishida turlicha tasir etadi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari avvalgi davrlardan tubdan farq qiladi. yerning hosildorligini va chorva mollarining mahsuldorligini oshirish yo‘llarini izlab topish bu davrning muhim xususitlaridan sanaladi. Bu dunyoda och aholi sonining har yili oshib borayotganligi bilan bog‘liqdir.

Mutaxassislarining fikricha, agar jahondagi vaziyat o‘zgarmasa, yigirma yildan keyin qishloq xo‘jaligi yerlariga egalik qilish maqsadida ko‘plab harbiy nizolar yuzaga kelishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligini to‘laqonli rivojlanishida qulay tabiiy-iqlim sharoitlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston territoriyasining kattagina qismini qishloq xo‘jaligida foydalanish mumkin bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar tashkil etadi. Har bir mintaqaning xususiyatlaridan kelib chiqib tabiiy iqlim sharoitlari farqlanadi. Ekinlarni yetishtirish va hosildorligi yog‘ingarchilik va quyoshli kunlarning davom etishiga bog‘liq

bo‘ladi. O‘zbekiston hududi yuqori, o‘rta va quyi mintaqalarga bo‘linadi va har bir hudud muayyan turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun qulay muhit hisoblanadi. Masalan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati sholi yetishtirish uchun qulay muhitga ega.

Tabiiy iqlim sharoitlarining xilma-xilligi qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva mollaridan amaliy jihatdan turli tuman mahsulotlar yetishtirish imkonini beradi. SHuning uchun ham O‘zbekiston eksportida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari salmoqli ulushga ega.

Rivojlangan davlatlar qishloq xo‘jaligi yuqori texnologiyalashganligi va turfa xilligi bilan tavsiflanadi. ASM ananaviy yirik ishlab chiqarishga, qayta ishlashga va mahsulotni eksportga sotish bilan shug‘ullanadigan fermer xo‘jaliklari, zamonaviy sohalar, yirik agroxoldinglardan tashkil topgan. Rivojlangan davlatlar qishloq xo‘jaligining ko‘plab yo‘nalishlarida yetakchi hisoblanadi. Rossiya, AQSH, Xitoy, Braziliya va Argentina davlatlarida qormalchilik rivojlangan. Sut mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha Frantsiya, Rossiya va Xitoy, tovuq go‘shti eksporti bo‘yicha AQSH, Frantsiya va Niderlandiya, qo‘ychilik yo‘nalishida Avstraliya va Buyuk Britaniya, cho‘chqachlik yo‘nalishida Kanada, Belgiya, Daniya va Niderlandiya, o‘simlikchilik yo‘nalishida Rossiya, Xitoy, AQSH, Avstraliya va Argentina davlatlari yetakchilik qiladi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash orqali nafaqat ichki istemolni qondirish, balki eksportni rivojlantirish orqali valyuta tushumini ko‘paytirishdan iboratdir.

O‘zbekiston eksportida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari salmog‘i oshib bormoqda va eksport tarkibida organik mahsulotlar, xususan organik mosh, organik mayiz va boshqa oziq ovqat mahsulotlari salmog‘i ham ko‘paymoqda.

Tadbirkorlik, xo‘jalik yuritish shakliga bog‘liq bo‘lmagan holda qishloq xo‘jaligining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining barqaror rivojlanishi qishloq xo‘jaligini isloh qilish va koxozlarni tashkil etishdan keyin boshlandi.

Xususiy korxonalar asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. Ko‘plab korxonalar maksimal foyda olish strategiyasini ishlab chiqadi. Buning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning yangi texnologiyalarini joriy etadi va investitsiyalarni yo‘naltiradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi ishlab chiqildi va uning asosiy maqsadlari:

- aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash;
- qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash;
- davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;
- tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- qishloq hududlarini rivojlantirish;


tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Bundan tashqari O‘zbekistonda “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish fondi” tashkil etilgan bo‘lib, bu fond faoliyati agrosanoat majmuasining rivojlanishini rag‘batlantirish, aholiga analog import mahsulotlariga qaraganda arzon baholarda sifatli mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Bu fond aholini sifatli va arzon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan taminlash maqsadida yarmarkalar tashkil etib boradi.

Qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab quvvatlash maqsadida to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirishning davlat dasturlari ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. Qishloq xo‘jaligini subsidiyalash ana shunday dasturlardan biri bo‘lib, u berilgan mablag‘larni qaytarib olmasligi bilan ahamiyatlidir.

Subsidiyalar tuproq unumdorligini oshirish, chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish, ko‘chat, ozuqa, mineral o‘g‘it xarid qilish, asosiy va aylanma fondlarni to‘ldirish, issiqxonalar, suv tejevchi texnologiyalarni qurish kabi malum maqsadlarga beriladi.

Keng ko‘lamli islohotlar natijasida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish holatini iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida tahlil qilib chiqamiz.



1-rasm. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining mamlakat YAIM dagi ulushining o‘zgarish dinamikasi, % da

1-rasm malumotlari tahlilni o‘z ichiga olgan davrda mamlakat qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi yillik o‘rtacha 0,3 -4,0 gacha o‘sish yuz berganligini, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining mamlakat YAIMdagi ulushi 29,7 % dan 25,5 ga kamayganligini ko‘rsatmoqda. Biroq, bu ulushning kamayishi tarmoqda mahsulot ishlab chiqarishning kamayishini anglatmaydi, balki mamlakatda sanoat va boshqa tarmoq va sohalarning ustun darajada rivojlanganligi natijasida tarmoqning hissasi kamayganligini bildiradi.

1-jadval.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3396,1	3340,6	3353,3	3358,5
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	250250,6	303415,5	345191,7	404648,6
shu jumladan:								
dehqonchilik	696,8	3323,1	18119,0	55429,2	123858,8	152130,4	177962,7	202679,1
chorvachilik	690,4	2655,2	12737,7	44175,4	126391,8	151285,1	167229,0	201969,5
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda	103,1	105,4	106,3	106,1	102,7	103,9	103,6	103,9
shu jumladan:								
dehqonchilik	103,1	107,0	105,9	105,5	103,2	104,3	103,8	104,2
chorvachilik	103,0	103,6	106,9	106,9	102,1	103,5	103,3	103,7

1-jadval malumotlari 2000-2023 yillar oralig‘ida mamlakat qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni, 419,8 ming gektarga kamayganligini, mamlakatda chorvachilik mahsulotlari bilan o‘simlikchilik tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmlari qariyb teng miqdorda ekanligini, tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 2,7-6,3 foizga o‘shishini ko‘rsatmoqda.

2-jadval

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi, % da

Ko‘rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Jami -Barcha toifadagi xo‘jaliklar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Jami –fermer xo‘jaliklari	5,5	24,3	36,3	30,7	28,2	29,3	31,4	29,8
Jami -dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	66,7	61,7	61,6	66,9	67,4	65,5	61,7	63,1
Jami qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27,8	14,0	2,1	2,4	4,4	5,2	6,9	7,1

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilganimizda, (2023 yil) eng katta ulush 63,1 % dehqon (shaxsiy tomorqa) xo‘jaliklariga, 29,8 % fermer xo‘jaliklarida, 7,1 % boshqa toifadagi xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xulosa

Qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlantirishning mahalliy va xorijiy tizimlarining tahlilidan keli/b chiqib quyidagilarni qayd etish mumkin:

-qishloq xo‘jaligini rivojlantirish davlat siyosatining doimiy ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi kerak;

davlat qishloq xo‘jaligiga fiskal va monetar vositalari orqali aralashib turishi, bunda soliqlarni bosqichli kamaytirishi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarni ikki holatda hosildorlik va mahsuldorlikni keskin oshib ketganda hamda keskin tushib ketgan paytda (har ikkala davrda ishlab chiqaruvchi o‘z to‘lov qobiliyatini yo‘qotadi) iqtisodiy qo‘llab quvvatlashi lozim;

qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun belgilangan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hudud xususiyatlaridan kelib chiqib tabaqalashtirish;

qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan subsidiyalashda “er ball baniteti” tizimidan “dala maydonlarini suvga yaqin va uzoqlik darajasi” tizimiga o‘tish;

qishloq xo‘jaligi korxonalarini ixtisoslashtirishda o‘simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarini uyg‘unligini taminlash, bu esa o‘z navbatida almashlab ekish tizimini joriy etilishiga va pirovardida mineral o‘g‘itlarni tejalishiga, tuproqning tabiiy unumdorligini oshishiga olib keladi;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining murakkabligi, tabiiy-iqlim sharoitiga bog‘liqligi, aholini eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlashi va ishlab chiqarish siklining uzunligini inobatga olgan holda tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini ayrim umumiy xususiyat kasb etadigan ishlar (mahsulotni yetkazib berish, saqlash, tozalash) bo‘yicha xarajatlarini o‘z zimmasiga olishi;

qishloq xo‘jaligi xodimlari ish haqisini kamligi sababli xodimlar ko‘nimsizligini pasaytirish maqsadida ularni pentsiyaga chiqishida ayrim imtiyoz va preferentsiyalar qo‘llash (masalan hisoblangan o‘rtacha ish haqining 55 % ini 60 % ga ko‘tarish);

qishloq xo‘jaligida suv o‘lchagich qurilmalarini o‘rnatish, suv tejoychi texnologiyalarni qo‘llash va yerlarni lazerli texnikalar bilan tekislaganda suv solig‘ida imtiyozlar berilgan, shunga muvofiq ravishda ekin turlari bo‘yicha suv sarfini norma darajasiga nisbatan ko‘p yoki kam sarflaganda rag‘batlantiruvchi va jarima jazolarini qo‘llash;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarini yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14-son qarori. Toshkent 2019 yil yanvar

2. O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent "O‘zbekiston" 1998 yil 30-aprel.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Er kodeksi” Toshkent "O‘zbekiston" 1998 yil 30-aprel.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi qonuni Toshkent “O‘zbekiston” 1998 yil 30-aprel.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Fermer to‘g‘risida”gi qonuni Toshkent "O‘zbekiston" 1998 yil 30-aprel.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-205 son farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27-oktabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-3342-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» F-3287 son Farmoyishi.

9. Маткаримов М. “Фермер хўжаликларида ер майдонларини меёрлаштириш масалалари”

10. Хужакулов Х.Д ва бошқалар “Кўп тармоқли фермер хўжалиklarини ривожлантиришнинг айрим жиҳатлари”
https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/1_X_Hojakulov_N_Asgarova.pdf.

11. Қалимбетов Х. ва Баймуратова З. “Фермер хўжаликларида қўшимча тармоқларни ташкил этишни рағбатлантириш масалалари” илмий-амалий агроиқтисодий журнал /2(9) 2019.

12. Бекмуродов Н.Х. Қишлоқ хўжалигини стратегик ривожлантиришнинг устувор йўналишлари ва уни амалга ошириш йўллари”
[file:///C:/Users/User/Downloads/ishlo-h-zhaligini-strategik-rivozhlantirishning-ustuvor-y-nalishlari-va-uni-amalga-oshirish-y-llari%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/ishlo-h-zhaligini-strategik-rivozhlantirishning-ustuvor-y-nalishlari-va-uni-amalga-oshirish-y-llari%20(1).pdf). Иқтисод ва молия / экономика и финансы 2021, 4(140).

13. Насимов Б.В. “Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалигини инновацион ривожланиш самарадорлиги”. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2018 йил.

https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/25_Nasimov.pdf